

AHOLI DAROMADLARINING OSHISHIDA OILA XO‘JALIKLARI VA ULAR IXTIYORIDAGI PUL MABLAG‘LARINING SHAKLLANISHI

Amaniyazov Rinat Bayniyazovich
Qoraqalpoq davlat universiteti tatqiqatchisi
e-mail: rinat_1212@bk.ru
Telefon: [+99 891 3044333](tel:+998913044333)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12742479>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada aholi daromadlarining oshishida oila xo‘jaliklari va ular ixtiyoridagi pul mablag‘larining shakllanishi borasida olib borilgan tadqiqotlarga to‘xtalangan.

Kalit so‘zlar. Bozor, iqtisodiyoti, korxonalar, mehnat haqi, aholi, daromad, xarajat, foiz, son, kishi, pul, xo‘jalik, tadbirkor.

АННОТАЦИЯ: В данной статье основное внимание уделяется исследованиям, проведенным по вопросам формирования семейных фермерских хозяйств и денежных средств, находящихся в их распоряжении за счет увеличения доходов населения.

Ключевые слова. Рынок, экономика, предприятие, заработная плата, население, доход, стоимость, процент, количество, человек, деньги, экономика, предприниматель.

ABSTRACT: This article focuses on the researches conducted on the formation of family farms and money at their disposal due to the increase in the income of the population.

Keywords. Market, economy, enterprise, wages, population, income, cost, interest, number, person, money, economy, entrepreneur.

Bozor iqtisodiyoti shartida aholi daromadlarining asosi bo‘lgan ish haqini tartibga solishda faqat moliyaviy dastaklardan foydalanish zarur. Bunday tartibga solishning quroli sifatida birinchi navbatda yuzaga chiqadi. Mamlakatimizda soliq kodeksini qabul qilinishi bilan yaratilayotgan daromadlarini va ish haqini optimal darajasini ta‘minlovchi yangi soliq mexanizimini yuzaga chiqaradi. Buning asosiy mazmuni shundan iboratki, ish haqi xarajatlarini mahsulot tannarxiga kiritish imkoniyati yuzaga chiqadi. Bu ko‘rsatkich hajmi hukumat tomonidan belgilanadi, ortgan qismi esa korxonalar umumiy daromadidan soliqlarni to‘lash bilan hisobga olinadi. Soliq mexanizmi aholining pul daromadlarini moliyaviy tartibga solishda bir

qadam oldinga siljish bo‘ldi. Lekin shunga qaramasdan u o‘zida o‘tish davrining xususiyatlarini ham aks etiradi, masalan, mehnat jamoasi yuqori xo‘jalik ko‘rsatkichlariga erishishni rag‘batlantirmaydi. Shuning uchun soliq to‘lovlarini mehnat haqi darajasiga qo‘yilgan asoslanmagan har xil to‘siqlardan ozod qiladigan shaklga erishishga harakat qilish zarur. Mehnat jamoalarini mulkchlikka o‘tish sharoitida umumiy daromadlarini soliqqa tortishni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi [1]. Bunday sharoitda mehnat haqining ortishi davlat daromadlarini kamaytirmaydi, bu faqat korxonada ixtiyorida qoladigan daromadga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Aholi daromadlariga qo‘shilgan qiymat va boshqa bilvosita soliqlar ta‘sir ko‘rsatadi. Bu yerda aholini ayrim tabaqalarini hisobga olmagan holda daromadlarni byudjetga olish amalga oshiriladi. Bu turdagi soliqlar juda qisqa muddatda amalga oshirilganligi uchun fuqarolarni birinchi navbatda kam ta‘minlangan turmush tarzini pasayishiga olib keladi. Bunday holatdan kam ta‘minlanganlarni byudjetdan to‘lanadigan maqsadli dotasiyalar ham himoya qila olmaydilar. Aholi daromadlarining o‘sishi xarajatlar tarkibining yanada mukammalroq bo‘lishiga olib keldi. 2000 yildan boshlab, aholining xarajatlari tarkibida tovarlar haridi uchun xarajatlar salmog‘i kamaydi va xizmatlar uchun haq to‘lashning salmog‘i o‘sdi. Shu bilan birgalikda yordamchi xo‘jalik va biznes yuritish, ko‘chmas mulklarni harid qilish va jamg‘arma xarajatlari o‘smoqda. Keyingi yillarda Respublikamizda keng ko‘lamli ijtimoiy dasturlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganligi aholi daromadlari va turmush darajasini izchil ravishda oshib borishiga asos bo‘lmoqda. Iqtisodiyotda aholi daromadlarining shakllanishi va uni oshirishning asosiy omili sifatida ish bilan bandlik qaraladi. Ish bilan bandlik bir tomondan, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan ne‘matlar miqdorini oshirishga hissa qo‘shsa, ikkinchi tomondan, aholining daromadlarini shakllanishi va oshishi hisobiga turmush darajasining oshishiga olib keladi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra ishga muhtoj bo‘lganlarning umumiy soni 1 326,6 ming kishini, ishsizlik darajasi iqtisodiy faol aholi orasida 8,8 foizni tashkil etdi [2]. 16-30 yoshgacha bo‘lganlar orasida ishsizlik darajasi 14,5 foiz, ayollar orasida ishsizlik darajasi esa 12,8 foiz bo‘ldi.

2022-yilda respublikamizda iqtisodiy nafaol aholi 4 353,2 ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 foizga yoki 38,8 ming kishiga ortishi kuzatildi.

Bunda, ishlashni xohlamaydigan yoki darhol ishga joylashishga imkoniyati yo‘qlar o‘tgan yilga nisbatan 183,6 ming kishiga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarishdan

ajralgan holda o‘qiyotgan talabalar hamda tug‘ruq ta‘tilidagi ayollar soni 222,4 ming kishiga oshgan.

Hisob-kitoblar tovarlar guruhi: kiyim-kechak, sanitariya-gigiyena vositalari, dori-darmonlar, uzoq vaqt foydalanishga mo‘ljallangan tovarlar bo‘yicha ishlab chiqiladi. Uy-joy va kommunal xizmat xarajatlari ushbu mintaqadagi narxlar va tarif normativlariga ko‘ra belgilanadi. Soliqlar va majburiy to‘lovlar xarajatlari ham hisobga olinadi.

1-jadval

Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari, ming so‘m

Hududlar	2012	2014	2016	2018	2020	2022	2022 yilda 2012 yilga nisbatan, %
O‘zbekiston Respublikasi	3501,8	4759,6	6215,9	9128,6	12122,2	17807,3	508,5
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2414,4	3317,1	4372,0	6808,7	9436,6	13253,4	548,9
Andijon	2945,8	4267,6	5637,3	8412,0	10765,9	15727,3	533,9
Buxoro	4145,2	5698,9	7354,2	11270,6	14675,5	21382,0	515,8
Jizzax	2905,5	4099,0	5459,4	8512,9	10951,7	15221,2	523,9
Qashqadaryo	3096,7	4179,4	5498,4	7827,9	10199,0	14678,9	474,0
Navoiy	5527,7	7377,7	9745,0	13921,4	19922,5	27420,4	496,1
Namangan	2644,0	3636,5	4745,5	6887,6	9258,8	13880,7	525,0
Samarqand	3029,9	4207,3	5603,4	8087,7	10522,8	15534,2	512,7
Surxondaryo	3064,9	4054,5	5079,8	7622,5	9745,0	14597,2	476,3
Sirdaryo	3600,3	5010,9	6772,1	8353,5	10938,3	15124,1	420,1
Toshkent	3955,1	5226,0	6749,9	9401,6	13129,4	18129,4	458,4
Farg‘ona	2918,0	3857,2	4994,1	7096,8	8853,5	13607,9	466,3
Xorazm	3362,8	4629,1	5840,3	9536,1	12270,6	19643,5	584,1
Toshkent sh.	6867,7	9251,9	12316,1	18432,1	25543,6	37518,0	546,3

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2012-2022 yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi jon boshiga umumiy daromadlari 2414,4-13253,4 ming so‘m atrofida o‘zgarib, o‘rganilgan davrda 5,5 martaga oshgani aniqlandi.

Shunday bo‘lsa-da, bu ko‘rsatkich 2022 yilda Buxoro viloyatida - 21382,0 ming so‘mni, Navoiy viloyatida - 27420,4 ming so‘mni, Toshkent shahrida - 37518,0 ming so‘mni tashkil etishi, ko‘rsatkichning Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan ham past ko‘rsatkich ekanligini ko‘rsatdi [3].

Hozirgi paytda Qoraqalpog‘iston Respublikasibo‘yicha oila xo‘jaliklari tahlil qilinganida kam ta‘minlangan oilalarning birmuncha qisqarayotganligini kuzatish mumkin.

2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilgan oila xo‘jaliklari va ular ixtiyoridagi pul mablag‘larining 2022 yil may oyida jon boshiga o‘rtacha taqsimlanishi

Oila a‘zolarining jon boshiga pul mablag‘larining hajmi, so‘mda	Kuzatilgan oila xo‘jaliklari		Undagi aholi		Oila a‘zolarining o‘rtacha soni
	Soni	ulushi, %	soni	ulushi, %	
500000 gacha	49	16,1	372	21,9	7,6
500001-550000	28	9,3	202	11,9	7,2
550001-600000	19	6,3	131	7,7	6,9
600001-650000	40	13,1	252	14,8	6,3
650001-700000	37	12,2	192	11,3	5,2
700001-750000	29	9,4	142	8,3	4,9
750001 - 800000	23	7,6	101	5,9	4,4
800001-850000	19	6,3	80	4,7	4,2
900001-950000	23	7,6	85	5,0	3,7
950001-1000000	5	1,6	18	1,1	3,6
1000001-1050000	2	0,7	7	0,4	3,5
1050001-1100000	5	1,6	15	0,9	3,0
1100001 va undan	25	8,2	105	6,1	4,2
Jami:	304	100,0	1702	100,0	5,6

Manba: Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilgan oilalar ma‘lumotlari asosida

Respublika bo‘yicha 2022yilning may oyi holatiga 304 ta oila xo‘jaligi tadqiq qilingan (2-jadval). Ularning tarkibida har bir oila a‘zosiga o‘rtacha daromadlari 200000 so‘mgacha bo‘lgan oilalar soni 49 tani yoki kuzatilgan oilalarning 16,2 foizini tashkil qilmoqda. O‘rtacha daromadi 650000 so‘mgacha bo‘lgan barcha oilalar soni 136 tani yoki umumiy oilalarning 45,0 % ni tashkil qiladi. Bu oilalarning tarkibida 957 nafar kishi yashaydi. Ularning ulushi 56,5 % ni tashkil qiladi. Kuzatilgan oilalardagi aholining umumiy soni 1695 kishini tashkil qiladi, ular tarkibidagi 900000 so‘m va undan ko‘proq daromadga ega bo‘lgan oilalar soni 58 tani, aholining soni esa 223 kishini yoki umumiy

kuzatilgan aholining 13,2 foizini tashkil qiladi. Oila farovonligining oshishi oiladagi o‘rtacha odamlar soniga bevosita bog‘liq bo‘lmoqda. Oila a‘zolarining o‘rtacha soni ularning daromadi oshishiga mos holda muntazam ravishda kamayib bormoqda [4]. Kuzatilgan oilalarda o‘rtacha aholining soni, ya‘ni oilalarning kattaligi 5,6 kishiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich O‘zbekistondagi shunday ko‘rsatkichlar miqdoridan (5,1 kishi) biroz yuqori. Kuzatilgan oilalarda aholining soni shu o‘rtachadan ko‘p bo‘lsa, ular nisbatan kambag‘alligini ko‘rishimiz mumkin. Uni bartaraf qilish masalasi nafaqat O‘zbekistonda balki, Qoraqalpog‘istonda ham o‘ta dolzarbdir. Ushbu jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, oilalarning asosiy qismi daromadi 700 000 so‘mgacha bo‘lgan guruhga to‘g‘ri kelmoqda. Ularning soni 173 tani, ulushi esa 56,9 % ni tashkil qiladi. Undagi aholining soni 1149 tani yoki barcha kuzatilgan oila xo‘jaligi aholisining 67,5 % ni tashkil qiladi. O‘rtacha oylik daromadi 700001 so‘mdan 1000000 so‘mgacha bo‘lgan oilalar soni 99 taga yoki ularning umumiy kuzatilgan oilalar tarkibidagi ulushi 32,6% ga teng. Mazkur oilalarda aholining soni 426 tani yoki umumiy kuzatilgan oila xo‘jaligidagi aholining 25,0 % ni tashkil qiladi. Bugungi kunda yuqori daromadli oilalar soni kuzatilgan oilalar o‘rtasida 32 tani yoki 10,5 % ni tashkil qiladi. Undagi aholining soni esa 7,5 % ga teng. Ularda o‘rtacha oila soni 3,9 kishini tashkil qiladi [5].

3-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kuzatilgan oila xo‘jaliklari va ular ixtiyorida pul mablag‘larining 2022 yil may oyida jon boshiga o‘rtacha taqsimlanishi

Pul mablag‘larining hajmi	Kuzatilgan oila xo‘jaliklari		Undagi aholi		Oila-larning o‘rtacha soni
	Soni	ulushi,%	soni	ulushi,%	
700000 so‘mgacha	173	56,9	1149	67,5	6,6
700001-1000000	99	32,6	426	25,0	4,3
1000001 va undan yuqori	32	10,5	127	7,5	3,9
Jami:	304	100,0	1702	100,0	5,6

Manba: Qoraqalpog‘iston Respublikasi oila xo‘jaligining yillik ma‘lumotlari

Ushbu tahlilda muhim qonuniyat kuzatilmoqda [6]. Oila xo‘jaliklari daromadlarining oshib borishi bilan ulardagi aholining o‘rtacha soni kamayib bormoqda. Oila xo‘jaliklari daromadi 700000 so‘mgacha bo‘lgan oilalarning o‘rtacha soni 6,6 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, 1000000 so‘mgacha oilalarda o‘rtacha

aholining soni 4,3 kishini tashkil qilmoqda. Oilalar daromadi 1000001 so‘mdan ortiq xo‘jaliklarda 3,9 kishini tashkil qiladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, oila xo‘jaligida odamlar soni qancha kamayib borsa, ularning o‘rtacha daromadlari shuncha ko‘p bo‘lar ekan. Bulardan tashqari, shu holat ma‘lum bo‘ldiki, qaysi oilada odamlar tadbirkorlik bilan shug‘ullansa, o‘sha oilaning o‘rtacha daromadi ham yuqori. Eng yuqori daromadga ega bo‘lgan 32 ta oilaning hammasi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib kelmoqda.

Ta‘kidlanganidek, pul daromadlari shahar bilan qishloq aholisi urtasida ham ancha farq qiladi. Umuman olganda, kuzatilgan oilalarda pul daromadining asosiy qismi shahar joylarida mehnat daromadlari, nafaqalar, stipendiya, tovon to‘lovlari, xayriya yordamlaridan tashkil topsa, qishlok joylarida yashaydigan aholining asosiy daromad manbai qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotuvdan tushgan daromadlar, mehnat daromadlari, nafaqa, stipendiya va boshqa daromadlardan tashkil topadi.

Qishloq aholisining daromadini ko‘paytirish maqsadida hukumatimiz juda ko‘p chora-tadbirlar ko‘rmoqda. Xususan, qishloqda oila pudrati, zarar bilan ishlayotgan shirkat xo‘jaliklarini fermer xo‘jaliklariga aylantirish, dehqon xo‘jaliklari kabi yangi xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar ochilishi uchun qonuniy asoslar yaratildi. Hozir qishloq joylarda tadbirkorlik asosan fermer xo‘jaliklarini ko‘paytirish hisobiga rivojlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. www.president.uz. 22.12.2017
2. Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. –Т.: Меҳнат, 2009. -357- б.
3. Мухиддинов Х.С. Худуд аҳолиси турмуш даражасини ошириш ва ижтимоий ривожланишини моделлаштириш. Монография. -Т.: ФАН, 2009. -12 б.
4. Рустамов Н.И., Аҳоли турмуш даражаси ва Ўзбекистонда уни ошириш имкониятлари//Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнали. № 5, сентябрь-октябрь, 2015.
5. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma‘lumotlari <https://mehnat.uz>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari